

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" iyun kuni qabul qilingan 218-sonli buyruqi haqida

JORIY ETILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi


*60210300 – Muzeyshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining*

*MALAKA TALABI*

Malaka talablarini "Oliy ta’lim davlat birlashtirilgan tizimida, Adolat  
qismlari", "Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klavdiatori"  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va tarmoq malaka dasturlari (konkret) kashfiy  
standartlar va kadrlar tayyorlashlari tashkilotiga muvofiq ishlatilgan va  
muntazim ravishda yoritilgan hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish  
haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
to‘rtinchi bo‘limi tomonidan

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" iyun dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	8
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	10
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	11



## **1. Umumiy tavsifi**

60210300–Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60210300 – Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Madaniy meros agentligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, davlat va nodavlat muzeylari, ko'rgazma zallari va galereyalarda asosiy va ilmiy yordamchi materiallarni tayyorlash, elektron katalog va elektron arxivlar yaratish, ekspozitsiya konsepsiyasi va ssenariysini yozish, muzey predmetlarni atributsiya qilish, konservatsiya, muzey predmetlarini hisobga olish va qayd etish, muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini o'rnatish, davlat va nodavlat muzeylarni boshqarishda me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, muzeyshunoslik sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.



### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

- Madaniy meros agentligi va uning tizimidagi muzeylar hamda madaniy meros ob'ektlari, ta'mirlash laboratoriyalari;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi muzeylar;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muzeylar;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi muzeylar;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muzeylar;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi muzeylar;
- O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tizimidagi ko'rgazma zallari va muzeylar;
- O'zbekiston tasviriy san'at galereyasida **muзей fond saqlovchisi**.

60210300 – *Muзейshunoslik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;*
- *axborot tahliliy faoliyat.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60210300 – *Muзейshunoslik (muзей predmetlari ekspertizasi, konservatsiya va ta'mirlash)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan muzeyshunoslikka oid ilmiy-tahliliy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

muзейshunoslik ob'ekti va predmetlarining o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy manbaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Muзейlarda o'zbek xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi o'rnini, taraqqiyot bosqichlarini, zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o'rganib ekspozitsiya konsepsiyalarini yaratish;



mamlakatimiz fuqarolarini chet ellarda saqlanayotgan tariximizga oid noyob osori - atiqalar bilan keng tanishtirish hamda muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro'yxatini yuritishda

fondning muhofaza sharoitlarini doimiy, qat'iy nazoratga olish, bu sohada tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bajarilishini ta'minlash ishlarida ishtirok etish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

muзей eksponatlarini saqlash jarayonida sifatni nazorat qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

muзейlar faoliyatini boshqarish, targ'ibot va tashviqot qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

muзей ishi jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, kasb etikasiga rioya etish, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyatida:**

Muзей ashyolari va san'at asarlarini restavratsiya qilish;

san'at asarlarini atributsiyasi va ekspertizasi qilish;

muзей fondlarini boyitish maqsadida sotib olinayotgan ashyolar bo'yicha xulosa berish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

madaniy meros ob'ektlarini muzeylashtirish va turistik salohiyatini oshirish yuzasidan aniq rejalar ishlab chiqishi kerak.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini monitoring qilish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi, soha bo'yicha faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, kasbiy madaniyatni shakllantirish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llay bilishi, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

sohaga oid yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;



ta'lim yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash, zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi, kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

respublika va xorijda chop etilgan muzeyshunoslikka oid ilmiy manbalarini o'rganish va to'plash;

muzeyshunoslik ob'ekti va predmetlarining shu kungacha o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

muzey ashyolarini ekspertiza, konservatsiya va restavratsiya qilish ishlarini tashkil etish va bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha nazariy va amaliy muzeyshunoslikni rivojlantirish tamoyillariga oid ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;

muzey fondlarida saqlanayotgan muzey ashyolarini komplektlashtirish, multimedia dasturlari uchun elektron arxivlash, onlayn muzeylar faoliyatini rivojlantirish;

muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalarni tashkil etish, hamda o'zaro foydali hamkorlik rejalarini ishlab chiqish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.



#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	O'ZEY1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	1
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.04	SSAT1104	San'at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	2
1.05	O'zT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	Din1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.07	TasSAR1104	Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar	120	4	1
1.08	Muzey1728	Muzeyshunoslik	840	28	1,2,3,4,5,6,7
1.09	UmST1730	Umumsan'at tarixi	900	30	1,2,3,4,5,6,7
1.10	SharqKMS1104	Sharq kitoboti va miniatyurasi san'ati	120	4	3
1.11	JLT1104	Jahon liboslari tarixi	120	4	3
1.12	O'zSanTar1318	O'zbekiston san'ati tarixi	540	18	5,6,7
1.13	AST1318	Amaliy san'at tarixi	540	18	5,6,7
1.14	MA1210	Me'morchilik asoslari	300	10	1,2
1.15	Et1208	Etnologiya	240	8	3,4
1.16	IIA1104	Ilmiy ish asoslari	120	4	7
<b>Muzeyshunoslik (muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiya va ta'mirlash)</b>					
1.17	MAER 1607	Muzey ashyolarini ekspertizasi va restavratsiyasi	210	7	2,3,4,5,6,7
1.18	RTT1607	*Rangtasvir texnika texnologiyasi	210	7	2,3,4,5,6,7
1.19	RKA1208	*Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	240	8	2,3
1.20	SAFKE1104	San'at asarlarining fizika-kimyoviy ekspertizasi	120	4	4
1.21	ArabX1106	Arab xattotligi	180	6	4
1.22	YSTN1104	Yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash nazariyasi	120	4	3
1.23	AIA 1104	Arxiv ishi asoslari	120	4	5
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>4,5,6</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	4,5,6
Kvalifikatsiya		Muzeyshunos: muzey muhofizi			
<b>Muzeyshunoslik (muzey menejmenti va madaniy turizm)</b>					
1.17	Foto1106	Fotografiya	180	6	2
1.18	Eks1104	Ekskursiyashunoslik	120	4	3
1.19	MTTN1424	Madaniy turizm tarixi va nazariyasi	720	24	3,4,5,6



1.20	O'zMST1106	O'zbekiston me'morchiligi san'ati tarixi	180	6	4
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>4,5,6</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	4,5,6
Kvalifikatsiya		Muzeyshunos: muzey menejeri			
		<b>Jami:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>840</b>	<b>28</b>	<b>4,6,8</b>
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>240</b>	<b>8</b>	<b>8</b>
		<b>Jami:</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\* *Rangtasvir texnika texnologiyasi, Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari* -fanlari ta'lim yo'nalishining xususiyatidan kelib chiqqan holda alohida dastur ishlab chiqiladi.



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002- 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, muzey, muzey-qo'riqxon, virtual muzey, madaniy meros, muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari, fond, eksponat, ekspozitsiya, ko'rgazma, konservatsiya, ta'mirlash, ekspertiza, atributsiya, menejment, marketing, imidj, kommunikatsiya, audiogid, sensorli kiosk, kolleksiya, badiiy loyihalash, vitrina.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLILGAN:**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
Rektor  A. Mirzoraximov

2024 yil " 25 " 06  
M.O.




O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev

2024 yil " 25 " 06  
M.O.



**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor  M. Boltabayev

2024 yil " 25 " 06  
M.O.



O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A. Nuridinov

2024 yil " 25 " 06  
M.O.



O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

Direktor  J. Ismailova

2024 yil " 25 " 06  
M.O.

